

# KASB-HUNAR TA'LIMI

ILMIY-USLUBIY, AMALIY, MA'RIFIY JURNAL

# 2025

2025-yil, 9-SON



# KASB-HUNAR TA'LIMI

Профессиональное образование  
Professional education

Ilmiy-uslubiy, amaliy, ma'rifiy jurnal  
2025-yil, 9-son

## Muassislar:

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi,  
Professional ta'limni rivojlantirish instituti

**Bosh muharrir:** Z.Y.XUDAYBERDIYEV  
**Ijrochi direktor:** H.SIROJIDDINOV

## Tahrir hay'ati:

M.XOLMUXAMEDOV, R.X.JO'RAYEV,  
A.Q.JALALOV, A.R.XODJABAYEV,  
J.SH.SHOSALIMOV, A.NABIYEV,  
A.A.HASANOV, H.SIROJIDDINOV,  
K.M.GULYAMOV

Jurnal 2000-yildan nashr etila boshlangan.  
O'zbekiston matbuot va axborot agentligida  
2007-yil 3-yanvarda qaytadan ro'yxatga olinib,  
0109-raqamli guvohnoma berilgan.

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Vazirlar  
Mahkamasi huzuridagi Oliy Attestatsiya komissiyasi  
tomonidan 2017 yil 29 avgustdagi 241/8 qarori  
bilan Pedagogika fanlari bo'yicha dissertatsiyalar  
yuzasidan asosiy ilmiy natijalarni chop etishga  
tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

**Manzil:** 100095, Toshkent sh., Olmazor tumani  
Universitet ko'chasi, 2-uy  
**Tel.:** 90-979-75-89; 94-677-90-32;

**E-mail:** kasbhunartalimi@mail.ru,  
ksbjurnal@inbox.uz.

**Nashr uchun mas'ul**  
H.Sirojiddinov

**Sahifalovchi:**  
I.Sirojiddinov

Tahririyat fikri muallif nuqtai nazariga to'g'ri  
kelmasligi mumkin.

Tahririyatga yuborilgan maqolalar tahrir etilmaydi  
va egasiga qaytarilmaydi.  
Jurnaldan ko'chirib bosilganda "Kasb-hunar ta'limi"  
jurnalidan olingani izohlanishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 10.11.2025-yil.  
Bichimi 60x84 1/8

Bosma tabog'i 10. Adadi 60 nusxa.

Buyurtma "PROFIEDUPRESS" MChJ  
bosmaxonasida chop etildi.

Korxonada manzili: Toshkent shahri, Sirg'ali tumani,  
Yangi Sirg'ali ko'chasi, 18-uy

# МУНДАРИЖА

Maxmudov X.Sh. Nutqiy apparat buzilishlarida logopedik o'yinning o'ziga xos xususiyati .....	3
Soliyeva D.B. An'anaviy loy o'yinchoqlar yasash orqali o'quvchilarda milliy hunarmandchilikka oid boshlang'ich ko'nikmalarini shakllantirish metodikasi .....	7
Raxmanov V.T., Topiboldiyev J.A., Raxmatullayev M.M., Ortiqboyev S.M. Umumta'lim maktablarda "Stem"-ta'lim sharoitida o'quvchilarda tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllantirish (Fizika fani misolida) .....	10
Gulboyev D.T. Mutaxassislik fanlarini o'qitishda multimedia vositalaridan foydalanish istiqbollari: muammolar va yechim .....	17
Abdullayev A.A. "Sun'iy intellekt va neyron to'rtli texnologiyalar" fanidan talabalarni bilim va ko'nikmasini baholashni intellektual tizimini yaratish modeli .....	21
Kuchimov M.K. Arxitektura va dizayn yo'nalishi bitiruvchilarini kasbga yo'naltirish jarayonlarida axborot almashishni optimallashtirish metodikasi .....	26
Zaripova D.A., Asqarova U.A. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilar bilimini onlayn monitoring qilishni modellashtirish .....	31
Po'latova G.J. O'zbekiston tarixi darslarida innovatsion yondashuvlar asosida o'quvchilarning ekologik kompetentligini baholash usullari .....	35
Qodirova X.N. Oliy ta'limda optika bo'limini o'qitishda "interfaol taqdimot" metodidan foydalanish .....	42
Raxmanov V.T., Saydaliyev S.B. Fizikani masofadan o'qitishda o'quvchilarning mustaqil ishlarini virtual laboratoriyalar yordamida tashkil etish .....	47
Mamanova S.F. Professional ta'lim o'qituvchilarining kasbiy faoliyatida nutqiy kompetensiya va nutqiy odob qoidalarining ahamiyati .....	54
Nurumbekova Y.A. Kouching elementlari bilan dars mashg'ulotlarini loyihalashtirishni o'ziga xos xususiyatlari .....	60
Babaxova G.Z. Matematika tizimi yordamida vodorodsimon atomlar spektrini kompyuterda modellashtirish .....	65
Samatova M.K. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining multimediyali elektron axborot ta'lim resursini o'zlashtirish bosqichlari .....	68
Pardaboyev U.A. Individual yondashuv texnologiyasi mazmuni .....	75
Ahadjonova Sh.O., Temirov N.S. Hadislarning yoshlar tarbiyasidagi ahamiyati .....	78
Qobilova E. Musiqa darslarida o'zbek xalq musiqa ijodini o'rganishda she'r va ohang uyg'unligi .....	84
Mardov S.X. Muhandislik grafikasi fanida dizayn tafakkurini shakllantirishning pedagogik asoslari .....	88
Rajapov V.T. O'smir qizlar orasida ma'naviy dunyoqarashni rivojlantirishda tizimli yondashuvlar .....	93
Jurayev E.X., Rajabov F.T. Geografiya ta'limida elektron ta'limiy resurslardan foydalanish pedagogik muammo sifatida .....	99
Kabulova S.E. Kouching texnologiyalari asosida bo'lajak pedagoglarni kasbiy faoliyatga tayyorlash modeli .....	104
Baymetov B.B. Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini kasbiy tayyorlashda maxsus fanlar integratsiyasining ahamiyati .....	112
Назарова О.Ш. Терпевтическая терминология в латинском и французском языках: сравнительно-лингвистический анализ .....	117
Umarova M.A., Mamarajabova Z.N. Nutqida nuqsoni bo'lgan maktabgacha yoshdagi bolalarda diologik nutqning o'ziga xos xususiyat lari .....	122
Shukurova M.X. CBI, CLIL va ESP o'rtasidagi farqlar va o'xshashlik lar .....	128
Maxmudova D.X. Raqamli pedagogika va onlayn ta'lim samaradorligi .....	132
Maxkamova D.A. Pedagogik oliy ta'limda talabalarining kasbiy ijtimoiylashuvini korporativ madaniyat asosida rivojlantirish .....	138
Yuldashov Sh.S. Bo'lajak o'qituvchilarda mediakompetentlikni shakllantirishning zamonaviy pedagogik yondashuvlari .....	143
Isroilova N.N. Kreativ kompetentlikni shakllantirishda neyropedagogik yondashuvlar va texnologiyalar .....	148
Valiyev U.Q. Fizika ta'limini innovatsion texnologiyalar asosida takomillashtirishning metodologik va metodik asoslari .....	151
Samijonov A.I. Oliy ta'limda axborot texnologiyalari asosida nazorat qilish tizimini takomillashtirishning pedagogik asoslari .....	157

<b>Mirzaakbarov D.D.</b> Interaktiv raqamli darsliklar asosida bo'lajak pedagoglarning kognitiv salohiyatini rivojlantirishning metodik asoslari.....	161
<b>Maxmudova M.S.</b> Dizartriya nutq kamchiligini bartaraf etishning o'ziga xos xususiyatlari .....	164
<b>Teshaboyev D.R., Mamadaliyeva A.M.</b> Xalq og'zaki ijodining gigiyenik tarbiyani shakllantirishdagi o'rni .....	168
<b>Azamov U.Y.</b> Pedagogik kommunikatsiya jarayonida ijtimoiy intellektning namoyon bo'lish xususiyatlari .....	171
<b>Kosimova Y.B.</b> Professional ta'lim muassasalari o'quvchilarida tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllantirish .....	176
<b>Utbasarova U.</b> Xulq atvor buzilishlari tahlili .....	181
<b>Qurbanova I.A.</b> Maxsus jismoniy mashqlar orqali yosh badmintonchilarning koordinatsion qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasi .....	184
<b>Zokirova S.M., Alijonova M.M.</b> Lingvistik kompetensiya haqida tushuncha. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kommunikativ kompetensiyani shakllantirishning ahamiyati .....	188
<b>Eshmamatova D.J.</b> Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kognitiv qobiliyatlarini rivojlanishida tabiiy fanlar darslarining pedagogik imkoniyatlari .....	192
<b>Sobitjon X.H.</b> Umumiy pedagogika darslarida raqamli platformalar asosida formatif baholashni amalga oshirish texnologiyasi .....	195
<b>Nazarova Sh.Sh.</b> Muhandislik yo'nalishi talabalariga kompyuter grafikasi asosida loyiha-konstruktorlik ko'nikmasini takomillashtirish metodikasi.....	201
<b>Абдуфаттохова М.Б.</b> Устоз-шогирдлик ўқитувчининг касбий мослашуви ва малакасини ошириш шакллари .....	206
<b>Kamalova Y.B.</b> Talabalarda sog'lom dunyoqarashni shakllantirishning nazariy mexanizmlari .....	211
<b>Sanakulova S.X.</b> Boshlang'ich ta'limda millatlararo muloqot ko'nikmalarini axloqiy kontentlar asosida shakllantirishning ijtimoiy-pedagogik asoslari .....	216
<b>Усаров Р.Х.</b> Язык как общественное явление .....	220
<b>Нурматова Ф.И.</b> Роль русского языка в профессиональной деятельности врача .....	222
<b>Salimova S.F., Kenjaeva N.J.</b> Raqamli platformalar yordamida talabalarning biologiya fanini o'zlashtirishda kreativ yondashuvlarini monitoring qilish imkoniyatlari .....	225
<b>Valiyeva N.A.</b> Fanlararo loyiha ishlarini tashkil etish orqali o'quvchilarning dizayn fikrlash salohiyatini oshirish .....	230
<b>Sodiqova G.G'</b> Boshlang'ich sinf o'qituvchilarida polisemiya va omonimiya hodisalarini farqlash asosida ko'p ma'noli so'zlarni o'rgatish metodikasi .....	234
<b>Quziyev S.I.</b> Xalqaro tajribalarda kasbiy ko'nikmalar tushunchasi va ularning ingliz tili o'qitishdagi roli .....	240

# BO‘LAJAK TASVIRIY SAN‘AT O‘QITUVCHILARINI KASBIY TAYYORLASHDA MAXSUS FANLAR INTEGRASIYASINING AHAMIYATI

BAYMETOV BOTIR BOLTABAYEVICH

Chirchiq davlat pedagogika universiteti, San‘atshunoslik fakulteti, “Tasviriy san‘at va dizayn” kafedrası professori

**Annotatsiya:** Maqola bo‘lajak tasviriy san‘at o‘qituvchisining kasbiy tayyorgarligini oshirishda qalamtasvir, plastik anatomiya va haykaltaroshlik fanlarinig ahamiyati, ushbu ularning o‘zaro integratsiyasi o‘zaro aloqadorligi, badiiy ta‘limda amaliy va nazariy mashg‘ulotlarning mazmuni, qalamtasvir, haykaltaroshlik va plastik anatomiya fanlarining integratsiyalashuvi jarayonida talabalarning bo‘lajak pedagogik faoliyatga kasbiy tayyorgarligini takomillashtirishning dolzarb muammolariga qaratilgan.

**Kalit so‘zlar:** Tasviriy san‘at, badiiy ta‘lim, fanlararo integratsiya, qalamtasvir, haykaltaroshlik, plastik anatomiya.

**Аннотация.** В статье рассматриваются значение рисунка, пластической анатомии и скульптуры в совершенствовании профессиональной подготовки будущих учителей изобразительного искусства, взаимосвязь их интеграции, содержание практических и теоретических занятий по художественному образованию, а также актуальные проблемы совершенствования профессиональной подготовки студентов к будущей педагогической деятельности в процессе интеграции рисунка, скульптуры и пластической анатомии.

**Ключевые слова:** Изобразительное искусство, художественное образование, междисциплинарная интеграция, рисунок, скульптура, пластическая анатомия.

**Abstract.** The article focuses on the importance of drawing, plastic anatomy, and sculpture in improving the professional training of future fine arts teachers, the interrelationship of their integration, the content of practical and theoretical classes in art education, and the current problems of improving students' professional preparation for future pedagogical activity in the process of integrating drawing, sculpture, and plastic anatomy.

**Keywords:** Fine arts, art education, interdisciplinary integration, drawing, sculpture, plastic anatomy.

Bugungi zamonaviy jamiyatda inson faoliyatining eng muhim sohalaridan biri – bu ta‘lim hisoblanadi. Co‘nggi yillarda uzluksiz ta‘limning ijtimoiy roli ortib, dunyoning aksariyat davlatlarida uning barcha turlariga bo‘lgan munosabat o‘zgardi. Ta‘lim ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyotning bosh, yetakchi omili sifatida qaralmoqda. Bunday e‘tiborning sababi zamonaviy jamiyatning eng zarur va asosiy kapitali – bu yangi bilimlarni izlash, egallash va nostandart qarorlar qabul qilishga qodir bo‘lgan inson hisoblanadi. Shunday ekan, hozirgi davrda ta‘lim shaxs va jamiyatni rivojlantirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Jahon iqtisodiyotida globallashuv va keskin raqobatchilik kuchayib

borayotgan hozirgi sharoitda insonning oldingi davrdagi butun hayot uchun ta‘lim olish emas, balki butun hayoti davomida uzluksiz ta‘lim olish zaruratini keltirib chiqarmoqda.

Uzluksiz ta‘limni modernizatsiya qilish va oliy ta‘limda kasbiy fanlardan auditoriya soatlarining sezilarli darajada qisqarishi, shuningdek, bakalavriat ta‘lim yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan “Tasviriy san‘at va muhandislik grafikasi” muddatining avvalgi to‘rt yildan uch yilga qisqarishi<sup>1</sup> tufayli murakkab davrni

1 Eslatma: Bu ta‘lim yo‘nalishida umumta‘lim maktablari uchun 2 ta fan o‘qituvchilarini tayyorlanadi, tasviriy san‘at va

boshidan kechirmoqda. Bu holat bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy mahoratini oshirish, shuningdek, ularning pedagogik malakalarini rivojlantirishga qaratilgan ixtisoslashtirilgan badiiy fanlarni o'qitishning eng samarali didaktik tamoyillarini izlashni taqozo etadi. Bunday sharoitda asosiy fanlar - qalamtasvir, plastik anatomiya va haykaltaroshlikning integratsiyasini tadqiq qilishning asosiy muammosi aniq bo'ladi. Ushbu fanlar talabalarning kasbiy qobiliyatlarini, ularning obrazli va fazoviy tafakkurini, tasviri va tasavvurlarini samarali rivojlantiradi, bir tomondan o'quvchilarda yuqori estetik ehtiyojlar va ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishni rag'batlantiradi, ikkinchi tomondan esa, qalamtasvir, haykaltaroshlik va plastik anatomiya fanlaridan soatlarning keskin kamayishini va bo'lajak pedagoglarni kasbiy tayyorlashga salbiy ta'sirini ko'rsatadi.

O'tkazilgan tahlillarga ko'ra, davlat uchun uzluksiz ta'lim har bir shaxsning kasbiy va umumiy rivojlanishi uchun maqbul shart-sharoitlarni ta'minlash borasidagi ijtimoiy siyosatning yetakchi sohasi hisoblansa, jamiyat uchun esa, uzluksiz ta'lim ijtimoiy ishlab chiqarishni rivojlantirishning muhim sharti, mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jarayonini tezlashtiruvchi hamda uning kasbiy va madaniy salohiyatini oshirib boruvchi mexanizm hisoblanadi. Jahon hamjamiyati uchun uzluksiz ta'lim xalqaro hamkorlik asosida milliy madaniyatlarni va umuminsoniy qadriyatlarni saqlash, rivojlantirish va o'zaro boyitish usuli hisoblanadi. YUNYESKOning "Ta'lim – yashirin xazina" ("Learning: The Treasure Within")<sup>2</sup> deb nomlangan XXI asr

chizmachilik fanlari. O'qish muddati esa har bir fan o'qituvchisini tayyorlash uchun 1,5 yil...

2 Obrazovaniye: sokrityoye sokroviye. Osnovnye polozeniya Doklada Mejdunarodnoy komissii po obrazovaniyu dlya XXI veka // <http://www.ifap.ru/library/book201.pdf>.

uchun ta'lim bo'yicha xalqaro komissiyasining ma'ruzasida ilmiy taraqqiyot hamda iqtisodiy va ijtimoiy faoliyatning yangi shakllari butun hayot davomida o'qishni talab etayotgani alohida ta'kidlanadi.

1. Bilishga o'rganish. Bu shaxsning keng umumiy madaniyatini fanlarning cheklangan sohasida bilimlarni chuqur egallashni nazarda tutadi. Shaxsning umumiy madaniyati ta'lim olishni rag'batlantiradi, uning bilimini muttasil oshirib borishga o'rgatadi. U, shuningdek, uzluksiz ta'lim tug'dirgan imkoniyatlardan foydalangan holda o'qishni o'rganishni ham ko'zda tutadi.

2. Ishlashni o'rganish. Har bir shaxs faqat kasb malakasini egallabgina qolmasdan, ayni paytda turli vaziyatlarda oqilona qaror qabul qilish va jamoa bilan birga ishlay olish ko'nikmalarini shakllantirgan kompetentlikka ega bo'lishi kerak. Shuningdek, shaxs hayoti davomida duch keladigan turli ijtimoiy yoki ishlab chiqarish muhitida mehnat faoliyatini amalga oshirishga ham o'rganishi kerak.

3. Birgalikda yashashga o'rganish. Umumiy loyihalarni amalga oshirish, bag'rikenglilik, o'zaro anglashuv, kelishish qadriyatlarini hurmat qilgan holda turli muammoli vaziyatlarni hal qilishda bevosita ana shu fazilat asqotadi.

4. Yashashni o'rganish. Bu o'z shaxsini kamol toptirish, mustaqil fikrga ega bo'lish, shaxsiy mas'uliyat demakdir. Shuning uchun ta'limda insonning ushbu fazilatlarini rivojlantiradigan barcha vositalardan: xotira, mushohada yurgizishga qodirlik, estetik did, jismoniy imkoniyatlar, aloqa qilishga qodirlik va hokazolardan samarali foydalanilishi lozim. Umuman olganda, uzluksiz ta'lim shaxs va jamiyatning mos ehtiyojlari davlat va jamiyat institutlari va tashkiliy ta'minlovchi tizim orqali shaxsning butun hayoti davomidagi ta'lim (umumiy va kasbiy) salohiyatining o'sish jarayoni bilan kechadi.

Uzluksiz ta'lim ijodkor, ijtimoiy faol, kreativ, ma'naviy boy shaxsni shakllantiruvchi va yuqori malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashda kelajakda butun umr davomida o'qishning ustunlari bo'lgan bilishga o'rganish, ishlashni o'rganish, birgalikda yashashga o'rganish, yashashni o'rganishning afzalliklarini ko'rsatadi.

Badiiy va pedagogik ta'limda haykaltaroshlik, qalamtasvir va plastik anatomiyaning integratsiyalashuvini yanada kengroq o'rganish uchun fanlararo aloqadorlikka alohida e'tibor berish zarur. Fanlararo aloqadorlik o'quv fanlari va badiiy amaliyot o'rtasidagi mazmun va aloqalarning taqsimlanishi darajasida, ma'lum bir mavzu yoki individual topshiriq uchun qabul qilingan makonni tasvirlash usullari darajasida va o'qitish usullari darajasida namoyon bo'ladi. Qolaversa, ta'lim jarayonida fanlararo aloqadorlik ko'pincha o'rganilayotgan ob'ekt janri va tasviri asosida qurilishini unutmash kerak.

Ma'lumki, bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy qobiliyatlarini rivojlantirishda qalamtasvir fani asosiy o'rinni egalladi. Biroq, hozirgi badiiy va pedagogik ta'lim tizimi haykaltaroshlik va plastik anatomiya kabi muhim fanlarda mavjud bo'lgan, badiiy ta'lim va tarbiyaning yaxlit jarayonidagi integratsiyasidan eng muhim bo'lgan ta'lim salohiyatidan etarli darajada foydalanmaydi. Bundan tashqari, oliy ta'lim muassasalarida qalamtasvir, plastik anatomiya va haykaltaroshlik fanlaridan nazariy va amaliy mashg'ulotlarning integratsiyasiga<sup>3</sup> kam

Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining olamni ko'rishga nisbatan yaxlit tasavvurni shakllantirish, ularning bilim olishini takomillashtirish va amaliy ko'nikmalarni shakllantirish maqsadida turli fanlardan olingan bilimlarni birlashtirish jarayoni. Bunga fanlararo aloqalarni chuqurlashtirish, o'quvchilarning

e'tibor berilmoqda (yangi taxrirdagi malaka talablarida plastik anatomiya fani ro'yxatdan olib tashlangan). Bu esa buyumlarni kompozitsion qurishda, inson qiyofasini tasvirlash uchun zarur bo'lgan murakkab plastik shakllarni chizish bo'yicha kasbiy bilim va amaliy ko'nikmalarga ega bo'lgan bo'lajak o'qituvchi shaxsini ijodiy rivojlantirish imkoniyatlarini sezilarli darajada pasaytiradi. Haykaltaroshlik, qalamtasvirdan farqli ravishda, to'g'ridan-to'g'ri buyumni haqiqiy uch o'lchovli makonda ishlash imkoniyatini beradi, bu talabalarning fazoviy tasavvurlarini rivojlantiradi, idrok etishini sezilarli darajada osonlashtiradi. Fazodagi uch o'lchovli tasvirni shakllantirishga asoslangan ob'ektning hajmli ko'rinishini tasvirlash tamoyilini tushunish hamda metodik izchillikda ongli va maqsadli jarayonini sezilarli darajada faollashtiradi. Shuni ta'kidlash kerakki, akademik qalamtasvir, haykaltaroshlik va plastik anatomiyaning o'rgatishda asosiy tabiiy ob'ekt inson qiyofasi (inson portreti yoki qomati) hisoblanadi. Bu yerda fanlararo integratsiya komponenti ayniqsa yaqqol namoyon bo'ladiki, bu esa tasvirlash uchun qo'yilgan modelning obrazli individualligini etkazishda, inson shakli shamoilining xususiyatlarini o'rganishga, uning plastik va konstruktiv xususiyatlarini aniqlashga to'liq yondashish imkonini beradi. Binobarin, san'at va pedagogik ta'limda turli fanlarning integratsiyasi talabalarning bilim va ijodiy faolligini sezilarli darajada takomillashtiradi, shuningdek, tasvirlangan ob'ektni yaxlit ko'rish va tushunishga yordam beradi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, qalamtasvir, haykaltaroshlik va plastik anatomiya fanlarining integratsiyalashuvi jarayonida talabalarning bo'lajak pedagogik

olgan bilimlarini amaliyotda to'g'ri qo'llash imkonini berish va o'rganishga bo'lgan motivatsiyasini oshirish orqali erishiladi.

faoliyatga tayyorgarligi pedagogikaning dolzarb muammolaridan bo'lib u quyidagi omillar bilan belgilanadi:

- uzluksiz ta'lim tizimida qalamtasvir, haykaltaroshlik va plastik anatomiya fanlarining yaxlit integratsiyalashuviga bag'ishlangan nazariy tadqiqotlar va amaliy qo'llashning yetarli darajada emasligi;

- talabalarning badiiy va ijodiy tafakkurini, fazoviy tasavvurini faollashtirish kontekstida qalamtasvir, haykaltaroshlik, plastik anatomiyaning nazariy asoslarini kompleks o'rganish zarurati.

Ushbu tadqiqotimiz uzluksiz ta'lim tizimida tasviriy san'at fanlarining tarixiy rivojlanishi kontekstida taniqli rassomlar, olimlarning qalamtasvir, haykaltaroshlik va plastik anatomiya fanlarini o'qitishning nazariy va amaliy tajribasiga asoslanadi.

Qalamtasvir umuman tasviriy san'atning turli muammolari Uyg'onish davridan boshlab ko'plab buyuk rassomlar, amaliyotchi rassomlarning (Leonardo da Vinchi, Leon Batista Alberti, Albrect Dyurer, Shon va boshqalar), shuningdek, keyingi rus rassom va olimlarining (A.P. Losenko, I.N. Kramskoy, K.P. Bryullov, P.P. Chistyakovlar dastlabki olimlar) e'tiborini tortdi. K.Bryullov o'z pedagogik amaliyotida ob'ektni turli tomonlardan homaki tasvirlar bajarish usulidan foydalangan. Uning "ko'zni sozlash" va naturani turli nuqtalardan ko'rib o'rganish natijasida kompozitsiya qurishda qo'llash usuli bilan tasvirlash ishni osonlashtiradi. Tasvirlashning uslubiy jihatlari ko'plab mashhur rus olimlari tomonidan o'rganilgan. N.N. Volkov, N.N. Rostovtsev, V.S. Kuzin va boshqalar tasviriy san'at badiiy akademik maktabini yaratishda bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilari uchun o'qitish usullarini ishlab chiqdilar va ilmiy asoslarni yaratdilar. A.D.Alexin, V.K. Lebedko, L.G. Medvedev, A.I. Ikonnikov, N.K. Shabanov va V.P. Zinchenkolar qalamtasvir didaktikasining turli

masalalarini o'rganib chiqdilar. Ularning ilmiy tadqiqotlari pedagogika oliy o'quv yurtlarida badiiy ta'limning o'ziga xos xususiyatlarini ochib berishga xizmat qildi.

E.F.Kuznetsovning tadqiqotlari, A.M. Savinov va boshqalar badiiy tayyorgarlikning turli yo'nalishlarida qalamtasvirni o'qitishning o'ziga xos jihatlarini ishlab chiqishga e'tibor qaratdilar, bu esa tasviriy san'at o'qituvchilarini tayyorlashda rasmni integratsiyaning asosiy elementi deb hisoblash imkonini berdi.

Hozirgi vaqtda qalamtasvirning o'quv fani sifatida ta'lim va rivojlanish salohiyatini o'rganishga bag'ishlangan qator tadqiqotlar, shuningdek, badiiy va kompozitsion tafakkurni rivojlantirishga bag'ishlangan ishlar bilan ko'plab horijiy rassomlar va olimlar shug'ullanganlar. Ularning asarlari akademik rasm chizish an'analariga asoslanadi, shuningdek, ta'lim va ijodiy maqsadlar o'rtasidagi muvozanatni izlashda davomiylik va integratsiya masalalarini ko'taradi. Biroq, qalamtasvir, haykaltaroshlik va plastik anatomiyaning birlashtirishning ta'lim salohiyatini o'rganishga bag'ishlangan ilmiy ishlar mavjud emas.

Bizningcha, fanlarning integratsiyasi asosida badiiy-pedagogik ta'limda qalamtasvir, haykaltaroshlik va plastik anatomiyaning integratsiyalash samaradorligini ilmiy asoslash va amaliy tekshirish muhim tadqiqotlardan biri hisoblanadi. Badiiy va pedagogik ta'lim tizimi doirasida qalamtasvir, haykaltaroshlik va plastik anatomiya fanlarining nazariy asoslarini tadqiq etish va malakali pedagoglarni kasbiy tayyorlash muhimdir. Qalamtasvir, haykaltaroshlik va plastik anatomiya fanlarini oliy pedagogik ta'lim tizimi doirasida integratsiya qilishda quyidagi masalalar o'z yechimini topdi. Ular quyidagilar:

- bo'lajak san'at o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligi samaradorligini sezilarli darajada oshiradi:

